«KELISHILDI»

Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva

_____

_____ 2026-y.

«TASDIQLAYMAN»

O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi raisi v.v.b.
A.A.Shermuxamedov

_____

_____ 2026-y.

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
filologiya fanlari bo‘yicha ekspert kengashining
qarori bilan tavsiya etilgan

Qo‘qon – 2026

KIRISH

Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiyotlararo jarayon taraqqiyoti qonuniyatlarini anglashga, badiiy matnning qiyosiy tahlil usuli haqida tasavvur va umumgumanitar bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Fan adabiy jarayonlarning tarixiy taraqqiyoti va ularning muhim ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liqligi, jahon adabiyotidagi ustuvor adabiy yo‘nalish va oqimlar, shoir, yozuvchilar hayoti va ijodi, ularning badiiy merosini qiyosiy o‘rganadi.

Chog‘ishtirma tilshunoslikka turli tillarning rivojlanishi, uning dialektik ko‘rinishlari, leksik, grammatik, fonetik va frazeologik ko‘rinishlari, tarjimashunoslikning dolzarb masalalari va ularning yechimlari, fanning o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi. Til haqida obyektiv mulohaza yuritish, uning mazmuniy estetik jihatini ham nazarda tutgan holda nutqiy ifodaning ta’sirchanligi yuzaga keltiradigan lisoniy vositalarning tabiatini, ularning badiiy nutq tarkibida kasb etadigan qo‘shimcha ma’no va ma’no belgilari hamda vazifalarini tahlil qilish orqali mukammal ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tarjimashunoslik umumjahon adabiy-tarixiy muammolarni yoritish va qiyoslash, adabiy jarayondagi o‘zaro aloqani ko‘rsatish, milliy adabiyotni jahon adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rgatishga yo‘naltirilgan.

Ushbu fan bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning lingvistik asoslari, tarjimaning metodik aspektlari, uning leksik-semantik, grammatik, stilistik va pragmatik muammolari, milliy o‘ziga xos so‘zlar tarjimasi kabi masalalarni qamrab oladi. Tarjimaning og‘zaki va yozma shakllari, badiiy tarjima, turli sohaga oid matnlar tarjimasi, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik kabi mavzularni o‘zlashtirish orqali tarjimaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarning shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 696-son va 2021-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida

ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon topshiruvchilar ushbu yo‘nalishda nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlash uchun zaruriy zamonaviy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning asosiy muammolari bo‘yicha o‘z bilim va mahoratlarini namoyish etadilar, bu boradagi zamonaviy tilshunoslikdan xabardorligi, ularni amaliyotda qo‘llashi haqidagi bilim va qarashlari darajasiga baho beriladi.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

– talabgorlar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mohiyatning manbai, tarixining asosiy bosqichlari, ushbu soxadagi yangi ilmiy yutuqlar borasida tasavvurga ega bo‘lishi;

– qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi filologik komparativistika, lingvistik komparativistika, adabiyotshunoslik komparativistikasi hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo‘lishi;

– qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik, chog‘ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalarini bilishi;

– ta’lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi;

– hozirga qadar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalari yuzasidan bir qator olib borilgan ilmiy izlanishlar va mazkur sohalarga doir tadqiqotlar bo‘yicha xabardor bo‘lishi;

– yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko‘rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

10.00.13 – QIYOSIY VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK IXTISOSLIGI BO‘YICHA MAVZULAR

I. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: til va jamiyat, sinergetikaning tayanch tushunchalari, sinergetika va dialektika munosabati, lingvosinergetikaning nazariy asoslari, tilshunoslik va sinergetika, lingvokultorologiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari, til hodisalariga sinergetik yondashuv, antropolingvistika fan sifatida, inson va jamiyat, til va jamiyat, inson va til, turkiy tillar va xalqlar, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, til va tafakkurning o‘zaro munosabati, tarjimashunoslik.

CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalari. Tipologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi. Izomorfizm va allomorfizm tushunchalari, xususiy tipologiyaning tiplari. Lingvistik tipologiyaning tillar qurilishidagi xususiy, ayrim o‘xshash va farqli tomonlarni emas, balki umumiy o‘xshash va farqli jihatlarni o‘rganadigan fan ekanligi. Tipologik tadqiqotlar genetik qardosh tillar doirasi bilan cheklanmasligi va har xil qurilishli tillar hisobiga o‘z chegaralarini kengaytirishi.

Til turi lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi. “Til tipi”, “tilda tip”, “lisoniy tip” tushunchalarining o‘zaro farqi. XIX asrda tillarning morfologik tasnifi. Til tipi lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida o‘ta murakkab va dolzarb muammolar sirasiga kirishi. Uning tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinayotgani. Xorijiy va o‘zbek tillariga xos umumiy belgilarning olti guruhga bo‘linishi. “Til tipi” tushunchasining ta’riflari.

XX asrda tipologik tadqiqotlarning rivojlanishi. Tillar tasnifining tiplar bo‘yicha o‘rganilishi. Til tipini aniqlash uchun formal munosabatlar va unsurlar orasidagi munosabatlar tipi hisobga olishning zarurligi. XIX asrda til tasnifi so‘zning formal belgi va xususiyatlari asosida qilinganligi. XX asr tilshunos-tipologlari formal unsurlar orasidagi munosabatlar turini hisobga olganligi sabablari. XIX va XX asrlarda tillararo tipologiya tasnifidagi farqlar. Agglyutinativ va flektiv tillarda grammatik ma’nolarning, asosan, so‘z doirasida, uning tarkibiga

kiruvchi affikslar yordamida ifodalanishi. Leksik va grammatik ma’nolarning bir til birligida mujassam ekanligi sabablari.

Til sathlarining barcha tipologik belgilarini hisobga olish til tipini aniqlashning muhim sharti ekanligi. U yoki bu til tipini aniqlash barcha til sathlari tipologik belgilarini hisobga olishga asoslanganligi. V.Skalichka (chex tilshunosi) o‘zining “Tipologiya haqidagi masalaga doir” asarida besh xil til tipi borligi haqida yozgani.

Etalon til masalasi. V.Skalichka tasnifida dunyo tillari besh tipga (flektiv, intraflektiv, agglyutinativ, izolyatsiyalovchi va polisintetik) bo‘linganligi, biroq birorta ham sof flektiv yoki sintetik til yo‘q ekanligi sababi. U yoki bu til tipologiyasini ilmiy ta’riflash uchun qandaydir o‘lchov (mezon) lozimligi, shuning uchun etalon tilga ehtiyoj sezilayotganligi.

V.D.Arakinning tipologik pasport konsepsiyasi. V.D.Arakin – tipologik olim. Uning tillar tipologiyasiga doir ishlari. V.D.Arakin tomonidan beshta til (rus, ingliz, island, turk va taiti tillari)ning “tipologik pasporti” ishlab chiqilgan. Bunday pasportlarni yaratishning ahamiyati V.D.Arakin tipologik pasportni ishlab chiqishda tilning tipologik “yuz”ini ochib beruvchi eng muhim tipologik jihatlarga asoslanganligi: 1) fonemalar tarkibi; 2) fonemalarning tuzilishi; 3) urg‘u; 4) bo‘g‘in tuzilishi; 5) intonatsiya; 6) grammatik kategoriyalar tarkibi; 7) so‘z birikmasi; 8) gap; 9) so‘z tuzilishi; 10) so‘z yasalishi; 11) umumiy xulosa.

Universaliylar ta’rifi. Universaliylar masalasi tillar tipologiyasida asosiy o‘rinlardan birini egallashi. Dunyoning barcha yoki aksariyat tillari uchun umumiy qonuniyatlarni ko‘rsatib beruvchi universaliylar ayni paytda tilda nima boru, nima yo‘qligini ham aniqlashga yordam beruvchi vosita ekanligi. Til hodisalarining umumiyligi mazmuniy yoki shakliy hodisaligi munozarali ekanligi.

Lisoniy universaliylarning asosiy ko‘rinishlari. Universaliylar tasnifining murakkabligi va bu boradagi munozarali holatlar. Universaliylarning turlari: 1) ekstralingvistik va sof lingvistik universaliylar; 2) fonologik, grammatik va leksik universaliylar; 3) sinxron universaliylar; 4) absolyut (cheklanmagan)

universaliylar; 5) implikatsion (qayd etuvchi) universaliylar va 6) elementar universaliylar.

Universaliylar masalasini o‘rganish tarixi va universaliylar nazariyasining tipologiya uchun ahamiyati. R.Yakobsonning Osloda bo‘lib o‘tgan VIII xalqaro tilshunoslar kongressida so‘zlagan nutqi va universaliylar nazariyasi. 1961-yilda Nyu-Yorkda lisoniy universaliylar bo‘yicha bo‘lib o‘tgan konferensiya natijalari. “Lisoniy universaliylar haqida memorandum” mazmuni. I.Grinbergning grammatik universaliylar nazariyasiga qo‘shgan hissasi. V.G.Gak va lingvistik universaliylar masalasi.

Tipologik tahlil metodlari. Ilmiy bilish metodi. Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik metodlar orasidagi farqlar. V.D.Arakinning tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy bilish metodiga bergan ta’rifi. Bu ta’rif tushunchaning insoniyat tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va amaliy usullar tizimiga asoslanganligi. Til hodisalarining o‘zaro aloqador va shartlangan ekanligi. Qiyosiy-tipologik metodning tadqiqot materialini tanlashda cheklanmaganligi. Qiyosiy-tarixiy va tipologik tahlil namunalari.

Qiyoslanayotgan tillarning tipologik jihatdan muhim belgilarini tanlash lingvistik tipologiyaning asosiy muammosi ekanligi. Qiyoslanayotgan tillarning izomorf va allomorf xususiyatlari. Tipologik tadqiqot va tillar tasniflari uchun tasodifiy belgilarni tanlashning nomaqbul ekanligi. V.D.Arakinning «Сравнительная типология английского и русского языков» asari mazmun-mundarijasi. Turli sath birliklari tuzilishini tipologik qiyoslash birliklari, aniqlik-noaniqlik kategoriyasi.

J.Grinbergning tipologik indekslar metodi. Sintetizm, prefiksatsiya va suffiksatsiya indekslari. Amerikalik tilshunos E.Sepirning tillarni tizimli qiyoslab o‘rganish haqidagi mulohazalari. Uning XIX asrda morfologik tasnifi g‘oyasini rivojlantirib, formal va semantik tahlillarning yangi mezonlarini ishlab chiqqani. J.Grinberg-E.Sepir g‘oyalarining davomchisi. J.Grinberg va tipologik ko‘rsatkichlarning son (miqdoriy) indekslari. Tillarda o‘zak va affiksal morfemalarni farqlashning qiyosiy tipologiya uchun ahamiyati. V.Skalichkaning

flektiv tillarda so‘z yasovchi suffiks va qo‘shimchalarning kuchsiz oppozitsiyasi haqidagi fikrlari. Sintetiklik indeksi. Prefiksatsiya indeksi. Suffiksatsiya indeksi.

Xorijiy va o‘zbek tillari fonologik tizimlari tipologiyasi. Fonologik sath tushunchasi. Fonologik tizimlari tipologiyasini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar tanlash. Unli fonemalarning grammatik funksiyalari. Undosh fonemalarning leksik ma’no ifodalashi. Fonologik ko‘rsatkichlar fonemalar soni va sifati ko‘rsatkichi; oppozitsiya va korrelyatsiya soni va sifatining ikkinchi fonologik ko‘rsatkich ekanligi; fonemalarning neytrallashuv ko‘rsatkichi, fonologik oppozitsiya kuchi ko‘rsatkichi.

Xorijiy va o‘zbek tillarida unli fonemalarning tipologik ko‘rsatkichlari. Xorijiy til tuzilishida unli fonemalarning turlari va ularning o‘zbek tilida mavjudligi masalasi. Xorijiy va o‘zbek tili unli tovushlari tizimidagi muhim fonologik belgilar. Xorijiy til unlilari tizimida oppozitsiyalarning rang-barangligi. Xuddi shunday holat o‘zbek tili unlilari tizimida kuzatilish/kuzatilmasligi.

Qiyoslanayotgan tillarda unli fonemalarning tipologik ko‘rsatkichlari. Qiyoslanayotgan tillarda unli fonemalar miqdorining turlicha ekanligi. Portlovchi, shovqinli, sonor va afrikat tovushlar. Xorijiy va o‘zbek tillarida konsonantizmga xos xususiyatlar. Xorijiy tilda jarangli va jarangsiz undoshlar omili. Jarangli jarangsizlik oppozitsiyasining neytrallashuv turlari. Xorijiy va o‘zbek tillarida undoshlar almashinuvi (чередование). O‘zbek va ingliz tillarida burun tovushlari tavsifi.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 4 август.
3. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. – Т.: Шарқ, 2010. – 262 б.
4. Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия и среды // Вопросы языкознания. – 1991. – №3. – С. 118-126.

5. Бодуэн де Куртенэ И.А. Языкознание или лингвистика 19 века // Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. – М., 1963. – Т. 2.
6. Бок Ф.К. Структура общества и структура языка. Новое в лингвистике. Выпуск VII. Социолингвистика. Изд. – М.: Прогресс, 1975. – 1706 с.
7. Ван Дейк Т.А. Контекст и познание. Фреймы знаний и понимание речевых актов // Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 12-41.
8. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 36-298.
9. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: «Прогресс», 1985. – 452с.
10. Гумбольдт Вильгельм фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 142-159.
11. Дж.Лакофф. Женщины, огонь и опасность. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – Москва: «Прогресс», 1988. (George Lakoff. Classifiers as a reflection of mind. – M: “Noun classes and categorization”. Ed.by C. Craig. Amsterdam, 1986).
12. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. – Москва: «Флинта», 2008. – 432 с.
13. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958. – 400 с.
14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Под ред. Б.А. Серебрянникова. – Москва: Наука. 1973. – С. 315 с.
15. Принципы описания языков мира. Под ред. В.А. Серебрянникова. – Москва: Наука, 1976. – 343 с.
16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.
17. Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Bayoz, 2015.– 247 б.
18. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, 2006. 91б.
19. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – 318 б.
20. Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Редакция Ш. Балли и А. Сеше. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999.– 432 с.
21. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Изд.2-е, испр.и доп. Академический проект. – М., 2001. – 990 с.

22. Qosimov A, Hamroqulov A, Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

Internet manbalar

1. www.homeenglish.ru
2. www.englishclub.ru
3. www.oup.com
4. www.google.com
5. www.cl.com, ac.uk «Uzbekistan today»
6. www.google.co.uz Literature
7. www.eurasianet.org
8. www.monash.edu.au

Qo‘qon davlat universitetining taqdimnomasi
(26.06.2026-y.)

O‘zbekiston Respublikasi OAK Filologiya fanlari bo‘yicha ekspert kengashining tavsiyasiga (_____ 2026-yil №____) asosan

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi

TARKIBI

№	F.I.Sh.	Lavozimi va unvoni	Vazifasi
1.	Ziyayev Avaz Ixtiyorovich	f.f.d. (DSc), professor	rais
2.	Ganiyeva Shodiya Azizovna	f.f.d. (DSc), professor	rais o‘rinbosari
3.	Yusufaliyev Elyorjon Mashrabovich	f.f.f.d. (PhD)	a’zo
4.	Karimova Vasila Vahobovna	f.f.f.d. (PhD), dotsent	a’zo
5.	Rasulova Matluba Xamzayevna	f.f.n., dotsent	a’zo
6.	Otaboyeva Mazmuna Raximovna	f.f.f.d. (PhD), dotsent	a’zo
7.	Burxanova Dilnoza Ilxomjon qizi	f.f.f.d. (PhD), dotsent	kotib